

ATROF MUHIT IFLOSLANISHINING TRIK ORGANIZMLARGA TA'SIRI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11001853>

O'ralova Nilufar

A.Qodiriy nomli Jizzax DPU

Tabiiy fanlar fakulteti

Zoologiya va anatomiy kafedrasi

o'qituvchisi

Tel. +99890 515 55 87

Annotatsiya

Mazkur maqolada ekologiya va atrof muhit ifloslanishi va unga qarshi kurashish chora tadbirlari to'g'risida so'z yuritilgan

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится об экологии и загрязнении окружающей среды и мерах борьбы с этим.

Abstract

This article talks about ecology and environmental pollution and measures to combat it.

Kalit so'zlar

Ekologiya, ekologik muammolar, issiqxona effekti, smog, ekologik ta'lim tarbiya

Tirik organizmlarni o'rab turgan muhit biogeokimyoviy va energiya uzatish tizimlariga ega hamda tirik yoki biotik bo'lmagan, havo, suv, iqlim va tuproq kabi tarkibiy qismlarga ega. Ekotizimning biotik tarkibiy qismlarini turli xil tirik organizmlar, o'simliklar va hayvonlar tashkil etadi.. Ekotizimning yuqorida aytib o'tilgan tarkibiy qismlari doimo o'zaro bir-biriga ta'sir etib turadi. Ekologiya tabiatda tirik organizmlarning har xil muhit bo'ylab tarqalishi, xilma-xilligi, ko'pligi, o'zaro bog'liqligi va ularning atrof-muhit bilan o'zaro aloqasi ifodasidir.

Ekologiya ya'ni biz yashab turgan muhitning ifloslanishi, ya'ni tabiatning zararlanishi tirik organizmlarga ham ta'sir qiladi. Tirik organizmlar, ya'ni hayvonlar va o'simliklar, ekologik tizimning asosiy qismidirlar va ekologiya ya'ni atrof muhitning ifloslanishi, butun ekologik tizim uchun katta salbiy oqibatlar tug'dirishi mumkin. Ekologiya ifloslanishining tirik organizmlarga ta'siri turli shakllarda bo'lishi mumkin. Misol uchun, kimyoviy moddalar, atrof muhitga

zararli bo'lishi mumkin va bu moddalar hayvonlar va boshqa tirik organizmlar uchun zararli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa ularning o'zaro aloqalarining buzishi, ularning oziqlanishini va hayot sharoitlarini buzishi bilan bog'liqdir. Iqlim o'zgarishlari tirik organizmlarga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda iqlim o'zgarishlarining asosiy sabablaridan biri deb ishlab chiqarish yani sanoat sohasini misol qilib keltirishimiz mumkin. Dunyoning qator mamlakatlarida ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan zavod va fabrikalarda chiqindi mahsulotlarining atrof muhitga chiqarilishi atrof muhit ifloslanishiga va shu bilan bir qatorda iqlim o'zgarishlariga sabab bo'lmoqda. Iqlim o'zgarishlari esa ikkinchi bir global muammoni ya'ni insonlar va hayvonlarning oziq ovqat bilan bog'liq bo'lgan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Yer yuzidagi katta katta zavodlardan chiqayotgan tutunlar havoga ko'tarilib smoglarni hosil qilmoqda. Smog deyarli har qanday tabiiy- [iqlim sharoitida](#) havoning kuchli ifloslanishi bo'lgan yirik shaharlar va sanoat markazlarida paydo bo'lishi mumkin. Smog yilning issiq fasllarida, quyoshli, shamolsiz [ob-havoda](#), havoning yuqori qatlamlari havo massalarining vertikal aylanishini to'xtatish uchun etarlicha issiq bo'lganda eng zararli hisoblanadi. Bu hodisa ko'pincha [tepaliklar](#) yoki [tog'lar](#) kabi tabiiy to'siqlar bilan [shamoldan](#) himoyalangan shaharlarda sodir bo'ladi. Smog dunyoning ko'plab [shaharlarida](#) katta muammo hisoblanadi. Ayniqsa, bolalar, keksalar va yurak va o'pka nuqsonlari bo'lgan odamlar, [bronxit](#), [astma](#), [amfizem](#) bilan og'rigan bemorlar uchun xavflidir. Smog [nafas qisilishi](#), [nafas olish](#) qiyinlashuvi, uyqusizlik, [bosh og'rig'i](#) va [yo'talga](#) olib kelishi mumkin. Shuningdek, u ko'z, burun va [halqum shilliq qavatining](#) yallig'lanishiga va [immunitetning](#) pasayishi-ga olib keladi. Smog paytida [kasalxonaga yotqizish](#), [relapslar](#) va nafas olish va yurak kasalliklaridan o'lim ko'payadi. Smoglarning hosil bo'lishi esa yana bir muammo issiqxona effektini yuzaga keltirib chiqaradi. Quyoshdan kelgan issiqlikning Yer sathida jamlanib, dimlanib qolishi issiqxona effekti deyilib. Quyoshdan kelgan nurni yer ham o'z navbatida atmosfera orqali koinotga qaytaradi. Issiqlikning koinotga qaytib chiqib ketmasligi oqibatida Yer yuzi me'yorida ortiq qiziydi va iqlimga ta'sir ko'rsatadigan issiqxona qatlami hosil bo'ladi. Natijada sutka mobaynida eng yuqori va eng past harorat orasida kam farq bo'ladi. Ya'ni odamlar va tabiat tunda ham kunduzgi kabi issiq va dim havo ta'sirida qoladi. Bunday sutkalik issiqlik esa keskin isish hodisasini keltirib chiqaradi. Ishlab chiqarish sanoatining zavod tutunlari natijasida atmosfera havosida smog hosil qilishi smoglarning issiqxona effektini hosil qilishi bular bari yig'ilib ekologik o'zgarishlarning ya'ni katta katta muammolarning sabablaridan biriga

aylanishmoqda. Ushbu sabablar oqibatini esa turlarning muhitga moslasha olish va oziq ovqat muammosini keltirib chiqarmoqda. Natijada oziq ovqat taqchilligi yoki muhitga moslasha olmasligi natijasida ko'pchilik turlarning qirilib ketishi ehtimoli oshib bormoqda. Insonyatning oziq ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida o'simliklarni yetishtirish maqsadida har xil suniy o'g'itlardan foydalanish esa tuproq ekologiyasining buzilishiga olib kelmoqda. Birinchi tomondan iqlim o'zgarishlari ikkinchi tomondan muhit o'zgarishlari bular bari yig'ilib tirik organizmlarning sog'ligi va yashab qola olishi muammosiga sabab bo'lib qolmoqda.

Iqlim o'zgarishlari sababli ko'pchilik tirik organizmlarning o'zgaruvchan sharoitlarga mos ravishda moslashishi qiyinlashadi. Shuningdek, suv resurslarining isrof qilinishi va ifloslanishi ham tirik organizmlarga ta'sir ko'rsatadi. Tabiiy muhit va tabiat zahiralaridan oqilona foydalanish tarixiy taraqqiyotning birinchi pog'onalaridayoq inson oldida turgan asosiy muammolaridan hisoblangan. [2.299]

Suv yetishmaslik, suvning ifloslanishi va suv resurslarining israf qilinishi hayvonlar va o'simliklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar buzilishiga olib keladi. Tabiatning muhim komponentlaridan biri bo'lgan o'simliklar (flora)ni muhofazalash va ulardan oqilona foydalanish ham ekologik, ham ijtimoiy - iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Yuqoridagi bo'limlardan ma'lum bo'ldiki, hozirgacha insoniyat o'zining turli ehtiyojlarini qondirish maqsadida o'simlikdan ko'p va nooqilona foydalanishi, ularni muhofazalash va qayta tiklashga yetarli e'tibor bermaganligi oqibatida sayyoramizning o'simlik dunyosida jiddiy salbiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. [1.184 b] Biz bunday muammolarni hayvonot olami misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Bizning har birimizning bu muammolarga qarshi kurashishni tashkil etishga va tabiatni himoya qilishga qaratilgan vazifalarimiz bor. Ekologik muammolarga qarshi kurash chora tadbirlari, bugungi kunda dunyoda eng muhim masalalardan biridir. Ekologik muammolar, tabiatimiz va ekosistemlarimizga zarar ko'rsatayotgan faktorlar, o'simliklar va hayvonlar hayotiy jarayonlari uchun balki inson organizmi uchun ham juda katta havf hatar tug'diradi. Bu muammolarga qarshi kurash uchun avvalo insoniyatning tabiat bilan to'g'ri va oqilona munosabatini ta'minlash juda muhim bo'lgan chora tadbirlardan biri sanaladi. Avvalo insoniyat ta'sirini tartibga solinmas ekan bu muammolar havfi oshishda davom etaveradi. Bu tadbirlar orqali, tabiatimizni saqlab qolish, atrofimizdagi ekosistemlarni himoya qilish va uning barqarorligini ta'minlash imkoniyati paydo bo'ladi. Ekologik muammolarga qarshi kurash chora tadbirlari, shu jumladan, atrofimizdagi zargarliklarni kamaytirish, atrofimizdagi o'simliklar va

hayvonotlarning naslini saqlab qolish, suv va havo sofligini ta'minlash, asbob-uskunalar va texnika vositalarining ekologik ta'sirini kamaytirish kabi bir qator vazifalarni o'z ichiga oladi. Bu chora tadbirlarining amaliyotga joriy etilishi uchun jamiyat va davlatlar hamkorligida birgalikda ishlashi muhim deb hisoblayman. Davlatlar, ekologik muammolarga qarshi kurash uchun qonunlar va siyosatlar qabul qilishi, ekologik muammolarga qarshi kurashni o'rganish va tarbiyalashning muhimligini ko'rsatishi kerak. Shuningdek, har bir insonning o'z xarakatlari va faoliyatlari bilan ekologik muammolarga qarshi kurash chora tadbirlarida faol ishtirok etishi zarur. [3.406B]

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki ekologik muammolarga qarshi kurashish orqali biz tabiatni saqlab qolishimiz va uning barqarorligini ta'minlashimiz mumkin bo'ladi. Atrof muhit ifloslanishi natijasida insonlarda nafas olish sistemasi, qon aylanish sistemasi va boshqa bir qator organlar kasalliklarini xususan endokrin kasalliklarni kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Odamlarda uchrovchi ushbu kasalliklarni oldini olish maqsadida atrof muhit sofligini saqlashga bo'lgan chora tadbirlarni kuchaytirish zarur. Buning uchun ekologik texnologiyalarni rivojlantirish, muammolarga qarshi kurashish uchun avvalo yoshlarda ekologik ta'lim tarbiyani kuchaytirish muhim ahamiyatga ega deb o'ylayman. Bu esa o'z navbatida, atrofimizdagi musaffo tabiatni saqlab qolish uchun zarur hamda inson va boshqa barcha tirik organizmlar yashashi, turlarning saqlanib qolishi tabiiy resurslarning kelajak avlodlar saqlab qolish va yetkazilishini taminlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.P.S.Sultonov "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari" T.2007
- 2.S.Mustafoyev. S.O'roqov. P.Suvonov " Umumiy ekologiya" T.2006
- 3.A.Ergashev. T.Ergashev "Ekologiya biosfera va tabiatni muhofaza qilish" T.2005